O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Temirbeton irrigatsiya novlari

Texnik shartlar

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti

Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #QDS6TWYKTO - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

So‘z boshi

1. STQ 21 “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi” Standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitasi tomonidan **ISHLAB CHIQILDI**.

2. O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan 2025 yil 8-sentabrdagi 106/MSt-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI**.

3. **O‘z DSt 3315-2018 O‘RNIGA AMALGA KIRITILDI.**

Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarda chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

STANDARTLAR INSTITUTI #QDS6TWYKTO - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

Mundarija

1	Qo‘llanish doirasi	1
2	Standartlarga havolalar	1
3	Tasniflash va shartli belgilar	2
4	Texnik talablar	3
5	Xavfsizlik va atrof muhit muhofazasi talablari	5
6	Qabul qilish qoidalari	6
7	Nazorat usullari	7
8	Transportda tashish va saqlash	8
9	Foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar	8
10	Ishlab chiqaruvchining kafolatlari	8
A ilova (normativ)		9
Bibliografiya		11
Bibliografik ma‘lumotlar		12

STANDARTLAR INSTITUTI #QDS6TWYKTO - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

TEMIRBETON IRRIGATSIYA NOVLARI
Texnik shartlar

ЛОТКИ ИРРИГАЦИОННЫЕ ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫЕ
Технические условия

The trays reinforsed concrete for irrigation
Spesification

Amalga kiritish sanasi: 8.10.2025

1 Qo‘llanish doirasi

Ushbu standart atrofni obodonlashtirish uchun mo‘ljallangan va og‘ir betondan ishlab chiqarilgan temirbeton irrigatsiya novlariga (keyinchalik matn bo‘ylab – novlar) tegishli talablarni belgilaydi.

2 Standartlarga havolalar

Ushbu milliy standartda quyidagi standartlarga havolalardan foydalanildi.

ГОСТ 12.0.004-2015	Система стандартов безопасности труда (ССБТ). Организация обучения безопасности труда. Общие положения
ГОСТ Р 12.3.047-2012	Система стандартов безопасности труда. Пожарная безопасность технологических процессов. Общие требования. Методы контроля.
ГОСТ 12.1.005-88	Система стандартов безопасности труда. Общие санитарно-гигиенические требования к воздуху рабочей зоны
ГОСТ 12.3.009-76	Система стандартов безопасности труда. Работы погрузочно-разгрузочные. Общие требования безопасности
ГОСТ 17.2.3.01-86	Охрана природы. Атмосфера. Правила контроля качества воздуха населенных пунктов
ГОСТ 17.2.3.02-2014	Правила установления допустимых выбросов загрязняющих веществ промышленными предприятиями
ГОСТ 17.4.3.05-86	Охрана природы. Почвы. Требования к сточным водам и их осадкам для орошения и удобрения
ГОСТ 310.3-76	Цементы. Методы определения нормальной густоты, сроков схватывания и равномерности изменения объема
ГОСТ 310.4-81	Цементы. Методы определения предела прочности при изгибе и сжатии
ГОСТ 427-75	Линейки измерительные металлические. Технические условия
ГОСТ 34028-2016	Прокат арматурный для железобетонных конструкций. Технические условия
ГОСТ 6727-80	Проволока из низкоуглеродистой стали холоднотянутая для армирования железобетонных конструкций. Технические условия
ГОСТ 8267-93	Щебень и гравий из плотных горных пород для строительных работ. Технические условия
ГОСТ 8735-88	Песок для строительных работ. Методы испытаний
ГОСТ 8736-2014	Песок для строительных работ. Технические условия
ГОСТ 10060-2012	Бетоны. Методы определения морозостойкости
ГОСТ 31108-2020	Цементы общестроительные. Технические условия
ГОСТ 10180-2012	Бетоны. Методы определения прочности по контрольным образцам

STANDARTLAR INSTITUTI #QDS6TWYKTO - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

ГОСТ 10922-2012	Арматурные и закладные изделия, их сварные, вязаные и механические соединения для железобетонных конструкций. Общие технические условия
ГОСТ 12730.5-2018	Бетоны. Методы определения водонепроницаемости
ГОСТ 13015-2012	Изделия бетонные и железобетонные для строительства. Общие технические требования. Правила приемки, маркировки, транспортирования и хранения
ГОСТ 14192-96	Маркировка грузов
ГОСТ 17624-2021	Бетоны. Ультразвуковой метод определения прочности
ГОСТ 18105-2018	Бетоны. Правила контроля и оценки прочности
ГОСТ 22690-2015	Бетоны. Определение прочности механическими методами неразрушающего контроля
ГОСТ 22904-2023	Конструкции железобетонные. Магнитный метод определения толщины защитного слоя бетона и расположения арматуры
ГОСТ 23732-2011	Вода для бетонов и строительных растворов. Технические условия
ГОСТ 24211-2008	Добавки для бетонов и строительных растворов. Общие технические условия
ГОСТ 24297-2013	Верификация закупленной продукции. Организация проведения и методы контроля
ГОСТ 25192-2012	Бетоны. Классификация и общие технические требования
ГОСТ 26433.0-85	Система обеспечения точности геометрических параметров в строительстве. Правила выполнения измерений. Общие положения
ГОСТ 26433.1-89	Система обеспечения точности геометрических параметров в строительстве. Правила выполнения измерений. Элементы заводского изготовления
ГОСТ 26633-2015	Бетоны тяжелые и мелкозернистые. Технические условия
ГОСТ 27006-2019	Бетоны. Правила подбора состава
ГОСТ 30108-94	Материалы и изделия строительные. Определение удельной эффективной активности естественных радионуклидов
ГОСТ 30244-94	Материалы строительные. Методы испытаний на горючесть
ГОСТ 31424-2010	Материалы строительные нерудные из отсевов дробления плотных горных пород при производстве щебня. Технические условия
O‘z DSt ISO 1920-7:2019	Betonni zararsiz sinovdan o‘tkazish - 7-qism. Qattiqlashtirilgan beton ustunidan qattiq bo‘lmagan sinovlar
O‘z DSt 12.0.001:2005	Система стандартов научной организации безопасности, промышленной санитарии и гигиены труда.
O‘z DSt 838:2023	Temir-beton mahsulotlar yasash uchun po‘lat qoliplar. Texnikaviy shartlar
O‘z DSt 3025:2015	Tekis va davriy profildagi armaturali prokat. Texnikaviy shartlar

Ushbu milliy standartdan foydalanishda Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlariga muvofiq standartlarni O‘zbekiston Respublikasi hududida amal qilinishi tekshirilishi kerak. Agar havola qilingan standart almashtirilgan (o‘zgartirilgan) bo‘lsa, unda ushbu standartdan foydalanishda almashtirilgan (o‘zgartirilgan) standartga amal qilish kerak. Agarda havola qilinayotgan standart almashtirilmasdan bekor qilingan bo‘lsa, unga havola qilingan qoida ushbu havolaga taalluqli bo‘lmagan qismida qo‘llaniladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #QDS6TWYKTO - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

3 Tasniflash va shartli belgilar

3.1 Mahsulotni boshqa hujjatlarda va (yoki) buyurtmada yozishga misol:

NO 60.3.5/3, NOM 30.2.6 [NO 10.3.2d (dt, dp)]; (NI 60.3.6/4); (NM 1; 2) O‘zMSt ____:202_ bu yerda:

N – nov;

M – manzarali;

I – irrigatsiya;

O – obodonlashtirish;

KP – ko‘prik plitasi;

60 – nov uzunligi;

3 – nov chuqurligi;

2; 6/4 – novning yuqori va pastki qismidagi kenglik, dm

1,2 – tartib raqami; d, dp, dt – to‘ldiruvchi; n – simon; g – simon;

O‘zMSt ____:202_ ushbu standart belgilanishi.

4 Texnik talablar

4.1 Temirbeton irrigatsiya novlari va kichik ko‘prik plitalari belgilangan tartibda tasdiqlangan texnologik hujjatlar bo‘yicha ishlab chiqarilishi va ushbu standart talablariga va ishchi chizmalarga muvofiq bo‘lishi kerak.

4.2 Asosiy parametrlar va xususiyatlar (xossalar)

4.2.1 Novlarning asosiy o‘lchamlari va markalari ushbu standartning A ilovasida keltirilgan.

4.2.2 Buyurtmachining belgilangan tartibda tasdiqlangan chizmalariga asosan ushbu standartda keltirilgan o‘lcham va turlardan farq qiluvchi novlarni ishlab chiqarishga yo‘l qo‘yiladi.

4.2.3 Novlarni O‘z DSt 838 bo‘yicha po‘lat qoliplarda ishlab chiqarish lozim.

4.3 Geometrik parametrlarning aniqligiga talablar

4.3.1 Geometrik parametrlarning haqiqiy chetlashishlarining qiymatlari quyidagilardan oshmasligi kerak, mm:

novlarning uzunligi 3000 gacha bo‘lganda +5, -10;

uzunligi 3000 dan yuqori 6000 ga bo‘lganda ±10.

4.4 Tashqi ko’rinishga talablar

4.4.1 Novlar betonining yuza sifati ГОСТ 13015 va ushbu standart talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

A6 – ishlov berilmaydigan, yuza foydalanish sharoitlarida ko‘rinadigan;

A7 – yuza foydalanish sharoitlarida ko‘rinmaydigan.

4.4.2 Chanoqlar, bo‘rtiqlar, mahalliy oqishlar, beton chetlarining sinishlariga yo‘l qo‘yiladigan o‘lchamlar 1-jadvalda ko‘rsatilgan qiymatlardan oshmasligi kerak.

1 jadval millimetrlarda

Beton yuzasining toifasi	Chanoqlarning eng katta o‘lchami yoki diametri	Mahalliy oqishlar balandligi yoki chuqurligi (chuqurliklar)	Yuza bo‘yicha o‘lchanadigan betonning chetidagi siniqlarning chuqurligi	Beton sinishlarining umumiy uzunligi chetning 1 m uzunligiga
A6	15	5	10	100
A7	20	Talab belgilanmagan	20	Talab belgilanmagan

STANDARTLAR INSTITUTI #QDS6TWYKTO - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

4.4.3 Kengligi 0,1 mm dan oshmaydigan yuza cho‘qishi va boshqa texnologik yoriqlardan tashqari novlarning betonida yoriqlar bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

4.4.4 Novlarning yuza qismlarida yog‘ va zang dog‘lari bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

4.4.5 Montaj ilmoqlari beton oqimlaridan tozalangan bo‘lishi kerak.

4.4.6 Armaturaning bo‘rtib chiqib qolishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

4.5 Betonga bo‘lgan talablar

4.5.1 Beton ГОСТ 26633 talablariga javob berishi kerak.

Siqilishga bo‘lgan mustahkamlik bo‘yicha novlar betonining sinfi ishchi hujjatlarga va ushbu standart talablariga muvofiq bo‘lishi kerak:

- NO 6.3.5/3, NI 60.3.6/4, NI 40.5.6/4, NI 50.4.4/3, NI 30.4.5/4, NI 30.4.6/4 markadagi novlar uchun – B22,5;
- NO va NOM markadagi novlar uchun – B15;
- KP 1; PM-3 ko‘prik plitalari uchun – B20.

Betonning tarkibini aniqlash qoidalari ГОСТ 27006 bo‘yicha qabul qilinishi lozim.

4.5.2 Sovuqqa chidamlilik bo‘yicha beton markasi F200 bo‘lishi lozim.

4.5.3 Suv o‘tkazuvchanlik bo‘yicha beton markasi W4.

4.5.4 Buyurtmachiga yetkazib beriladigan betonning loyihaviy chiquvchi mustahkamligi yilning issiq davrida 90% va yilning sovuq davrida 95% dan kam bo‘lmasligi kerak.

4.5.5 Beton aralashmasiga kiritiladigan plastifikator, havo tortuvchi va kiritiladigan miqdori ГОСТ 24211 talablariga javob berishi kerak.

4.5.6 Beton aralashmasiga qotishni tezlashtiruvchi sifatida ($CaCl_2$) xlorid kalsiyini kiritishga yo‘l qo‘yilmaydi.

4.5.7 Beton himoya qatlamining ishchi armaturagacha bo‘lgan qalinligi 15 mm dan kam bo‘lmasligi kerak.

4.5.8 Beton himoya qatlamining ishchi armaturagacha bo‘lgan qalinligining haqiqiy chetlashishlari novlar devorlarining qalinligidan qalinligidan oshmasligi kerak:

±5 – 100 mm gacha;

+8, -5 – 100 mm dan ortiq bo‘lganda.

4.5.9 Novlar ГОСТ 25192 tasniflanishi bo’yicha og‘ir betondan ishlab chiqiladi, siqilishga bo’lgan mustahkamligi bo’yicha sinfi B25 dan kam bo‘lmagan va o‘q bo‘yicha cho‘zilishi B_t2,4 ni tashkil etadi.

4.5.10 Tajovvuzkor muhitda foydalanish uchun mo‘ljallangan novlar betonining suv shimuvchanlik massa bo‘yicha 5% dan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

4.5.11 Betonni qolipdan yechishdagi mustahkamligi loyihaviy mustahkamlikning 70% dan kam bo’lmasligi kerak

4.6 Armatura va o‘rnatish mahsulotlariga talablar

4.6.1 Armatura mahsulotlarining shakli va o‘lchamlari, ularning novlardagi holati, yuza sifati, payvand birikmalarning va o‘rnatish mahsulotlarining mustahkamligi ГОСТ 10922 va ishchi chizmalarga muvofiq bo‘lishi kerak.

4.7 Xom ashyo va materiallarda talablar

4.7.1 Novlarni ishlab chiqarishda ГОСТ 24297 bo‘yicha verifikatsiyadan o‘tgan (kirish nazorati) va quyidagi quyidagi me‘yoriy hujjatlarga muvofiq bo‘lgan materiallaridan foydalanishi lozim:

– bog‘lovchi sifatida ГОСТ 31108 bo‘yicha portlandsement va shlakoportlandsement qo‘llaniladi;

- kichik to‘ldiruvchi sifatida ГОСТ 8736 bo‘yicha qurilish ishlari uchun qum va ГОСТ 31424 bo‘yicha chaqiq tosh ishlab chiqarishdagi zich tog‘ jinslarini maydalashdan olingan qum;

- katta to‘ldiruvchi sifatida – ГОСТ 8267 bo‘yicha qurilish ishlari uchun zich tog‘ jinslaridan chaqiq tosh.

STANDARTLAR INSTITUTI #QDS6TWYKTO - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

4.7.2 ГОСТ 23732 bo‘yicha beton va eritmalar uchun suv.

4.7.3 Betinni tayyorlash uchun qo‘shimchalar ГОСТ 24211 talablariga javob berishi kerak.

4.7.4 Novlarni armaturalash uchun:

- O‘z DSt 3025 yoki ГОСТ 34028 bo‘yicha Ст3пс va Ст3сп markadagi A240 va A400 sinfidagi silliq va davriy profilning issiq yoyilgan armatura sterjenli po‘lati;

- ГОСТ 6727 bo‘yicha Bp – I sinfidagi sovuq yoyilgan davriy profildan sim;

4.7.5 Montaj ilmoqlari O‘z DSt 3025 yoki ГОСТ 34028 bo‘yicha Ст3пс va Ст3сп markadagi A240 sinfidagi silliq profilning issiq yoyilgan armatura sterjenli po‘latidan ishlab chiqarilishi kerak.

4.7.6 Payvand armatura mahsulotlari ГОСТ 10922 talablariga javob berishi kerak.

4.7.7 Ushbu standartda o‘rnatilgan novlarning ekspluatatsion sifat ko‘rsatkichlarini ta‘minlovchi boshqa xom ashyo shu jumladan import qilingan materiallardan foydalanish mumkin.

4.7.8 Betonni ishlab chiqarish uchun xom ashyo materiallarning tabiiy radionuklidlarning (A_{sam}) solishtirma samarali faolligi [1] va ГОСТ 30108 bo‘yicha 370 Bq/kg dan oshmasligi kerak.

4.8 Tamg‘alash

4.8.1 Novlarni tamg‘alash ushbu standart va ГОСТ 13015 talablariga asosan bajarilishi lozim.

4.8.2 Tamg‘alash yozuvlarini issiqlik bilan ishlov berilganidan keyin sovishga ulgurmagan betonining chetiga yoki montaj va saqlashda ko‘rinadigan har bir novning yuzasiga maxsus qalam yoki muhr bilan yozishga ruxsat etiladi.

4.8.3 Tamg‘alash yozuvlari quyidagilarga ega bo‘lishi kerak:

- ishlab chiqaruvchi korxonaning nomlanishi yoki savdo belgisi (agar mavjud bo‘lsa), manzil (yuridik, haqiqiy);
- to‘sin markasi;
- ishlab chiqarilgan sana (kun, oy, yil);
- texnik nazorat muhri;
- mahsulot massasining qiymati, t;
- novlarning aniq turiga ishchi hujjat va ГОСТ 13015 talablariga muvofiq “montaj belgisi”.

4.8.4 Transport tamg‘asi ГОСТ 14192 ga muvofiq amalga oshiriladi.

4.9 Qadoqlash

Novlar qadoqlanmaydi.

5 Xavfsizlik va atrof muhit muhofazasi talablari

5.1 Novlar ГОСТ 30244 bo‘yicha yonmaydigan mahsulotlar guruhiga kiradi.

5.2 Novlarni ishlab chiqarishda O‘z DSt 12.0.001 bo‘yicha umumiy xavfsizlik qoidalariga rioya qilish lozim.

5.3 Ishlab chiqarish maydonchalari ГОСТ Р 12.3.047 ga muvofiq yong‘inga qarshi uskunalar bilan ta‘minlanishi kerak, ГОСТ 12.1.005 bo‘yicha umumiy almashuv oqib kelish-chiqarish ventilyatsiyasi, [2] bo‘yicha isitish va ventilyatsiya bilan jihozlangan bo‘lishi kerak. Ishlab chiqarish xonalari [3] va talablarga muvofiq bo‘lishi kerak.

5.4 Ishlab chiqarish binolarining mikroiqlimi [4] talablariga javob berishi kerak.

5.5 Ishlab chiqaruvchi tashkilotning ma‘muriy va maishiy binolari [5] talablariga javob berishi kerak.

5.6 Novlarni ishlab chiqarish bilan band bo‘lgan shaxslar amaldagi me‘yoriy hujjatlarga muvofiq shaxsiy himoya vositalari bilan ta‘minlangan bo‘lishi kerak.

5.7 Novlarni ishlab chiqarishda ishlaydiganlar ishga qabul qilinishidan oldin va davriy tibbiy ko‘rikdan o‘tishlari kerak, hamda, ГОСТ 12.0.004 ga muvofiq xavfsizlik bo‘yicha instruktaj va ish joyida o‘qitilishi kerak.

5.8 Ish joyida ruxsat etilgan tebranish va shovqin darajasi [6] va [7] da belgilangan qiymatlardan oshmasligi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #QDS6TWYKTO - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

5.9 Ortish – tushirish ishlari ГОСТ 12.3.009 talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

5.10 Novlarni ishlab chiqarishda ГОСТ 17.2.3.02 bo‘yicha atrof muhit xavfsizligi talablariga rioya qilish lozim.

5.11 ГОСТ 17.4.3.05 bo‘yicha oqova suvlariga talablar.

5.12 Ishlab chiqarish chiqindilarini yig‘ish, saqlash va yo‘q qilish [9] talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

6 Qabul qilish qoidalari

6.1 Novlarni qabul qilish to‘plarda ushbu standart va ГОСТ 13015 talablariga muvofiq ishlab chiqaruvchi tashkilotning sifat bo‘yicha mas’ul shaxs yoki texnik nazorat xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

6.2 To‘p tarkibiga bir turdagi, bir kundan ko‘p bo‘lmagan muddatda, bitta texnologiya bo‘yicha, bir turdagi va sifatdagi materiallardan ishlab chiqarilgan novlar kiradi.

6.3 Novlarni qabul qilish natijalar bo‘yicha amalga oshiriladi:

- xom ashyo va materiallarning kirish nazorati;
- novlar ishlab chiqarish jarayonida bajariladigan operatsion nazorat;
- armatura mahsulotlarining qabul qilish nazorati;
- tayyor novlarning qabul qilish topshirish sinovlari.

6.4 Xom ashyo va materiallarning verifikatsiya qilish ГОСТ 24297 bo‘yicha amalga oshiriladi.

6.5 Verifikatsiya va qabul qilish nazorati natijalari zavod laboratoriyasining TNB jurnallarida yozib olinishi lozim.

6.6 Operatsion nazoratining hajmi va tartibi belgilangan tartibda tasdiqlangan ishlab chiqaruvchi tashkilotning texnologik hujjatlari bilan o‘rnatiladi.

6.7 Tayyor novlar betonining davriy sinovlari to‘sinlarni seriyalarda ko‘plab tayyorlashdan oldin, ularga konstruktiv o‘zgartirishlar kiritilganda, ishlab chiqarish texnologiyasi o‘zgarganida, foydalaniladigan materiallar turi va sifati o‘zgarganda 6 oyda kamida bir marta va quyidagilar bo‘yicha o‘tkaziladi:

novlarni siqilishga bo‘lgan mustahkamligi ГОСТ 18105 bo‘yicha;

novlar betonining chiquvchi mustahkamligini buzmasdan nazorat qilish usulida ГОСТ 17624 bo‘yicha;

novlar betonini ultratovushli uskunalar ta’sirida sinovdan o‘tkazish ГОСТ 22690 bo‘yicha;

novlar betonini mexanik uskunalar ta‘sirida sinovdan o‘tkazish O‘z DSt ISO 1920-7 bo’yicha;

novlarning geometrik parametrlarining nazorati ГОСТ 26433.0 va ГОСТ 26433.1 talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

6.8 Novlarni ko‘rsatkichlar bo‘yicha qabul qilish topshirish sinovlari ko‘rsatkichlar bo‘yicha amalga oshiriladi: geometrik parametrlarning aniqligi, beton himoya qatlamining armaturagacha bo‘lgan qalinligi, beton yuzasining toifasi, texnologik yoriqlarning ochilish kengligi, mahsulotning tashqi ko‘rinishi, chiquvchi mustahkamlik, siqilishga bo‘lgan loyiha mustahkamligi, payvand birikmalarining mustahkamligi, armatura mahsulotlarining ishchi chizmalarga muvofiqligi, ushbu standartning 2 jadvali va ГОСТ 13015 ga muvofiq bir pog‘onali tanlovli nazoratni qo‘llash lozim.

2 jadval donalarda

To‘p hajmi	Tanlov hajmi	Nuqsonlarni qabul qilish darajasidagi yaroqsizlar soni, %	
		4,0	10,0
25 gacha	5	1	2
26 dan 90 gacha	8	2	3
91 dan 280 gacha	13	2	4

STANDARTLAR INSTITUTI #QDS6TWYKTO - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

6.8.1 Agar tanlovda ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha yaroqsiz novlar bo‘lmasa yoki ularning soni 2 jadvalda ko‘rsatilganlardan nuqsonlar sonidan kam bo‘lsa mahsulot to‘pini har bir nazorat ko‘rsatkichi bo‘yicha qabul qilinadi.

6.9 Montaj belgilarini va tamg‘alash yozuvlarini to‘g‘ri tushirilganligi, montaj ilmoqlarining mavjudligi, ularni beton oqimidan tozalanganligi to‘liq to‘pni nazorat qilish orqali amalga oshiriladi.

6.10 Tabiiy radionuklidlarning solishtirma samarali faolligi (A_{sam}) ГОСТ 30108 bo‘yicha yiliga bir martadan ko‘p bo‘lmagan miqdorda aniqlanadi.

6.11 Tabiiy radionuklidlarning solishtirma samarali faolligini (A_{sam}) xom ashyo materiallarga yoki sanitar gigiyenik xulosa mavjudligida aniqlamaslikka yo‘l qo‘yiladi.

6.12 Agar barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha sinovlar natijalari ushbu standart talablariga javob bersa novlar to‘pi qabul qilinadi.

6.13 Tekshiruv paytida novlar betonining mustahkamligi ushbu standartda belgilangan talablariga javob bermasligi aniqlangan taqdirda, betonni 28 kunlik siqilishdagi mustahkamligi markasiga erishilgandan keyin iste’molchiga yuborilishi kerak.

6.14 Bir manzilga yetkazilayotgan har bir novlar to‘pi, ГОСТ 13015 talablarini qoniqtirishi va sifat to‘g‘risidagi hujjat bilan birga yuboriladi. Sifat bo‘yicha hujjatda quyidagilar ko‘rsatilgan bo’lishi lozim:

- ishlab chiqaruvchi-korxonaning nomi yoki tovar belgisi (mavjud bo‘lsa), manzili (yuridik, haqiqiy), telefon;
- hujjatni berish raqami va sanasi;
- buyum markasi va nomi;
- buyum soni (dona) va to‘p raqami;
- ishlab chiqarilgan sana (oy, yil);
- siqilishdagi mustahkamligi bo‘yicha nov betonini sinfi (marka) MPa (kgf/cm^2);
- nov betonini ozod qilish mustahkamligi (haqiqiy), MPa (kgf/cm^2);
- sovuqbardoshligi bo‘yicha beton markasi;
- suv o‘tkazmaslik bo‘yicha beton markasi;
- sertifikatlash to‘g‘risida ma’lumot;
- shtrix kodi ro‘yxatga olingan raqami bilan (zarur bo‘lganda);
- TNB muhri yoki buyum sifatiga javobgar shaxs imzosi;
- mazkur standart belgilanishi;
- Yozuvlar: O‘zbekiston hududlarida sotiladigan mahsulot uchun - «O‘ZBEKISTONDA ISHLAB CHIQARILGAN» yoki eksportga jo‘natiladigan mahsulotga - «MADE IN UZBEKISTAN».

6.15 Qo‘shimcha ma’lumotlar mavjudligida, novlarni ishlab chiqarishda buyurtmasida kelishilgan, “Sifat to‘g‘risida hujjat”da ushbu ko‘rsatkichlar bo’yicha ma’lumotlar keltirib o’tilishi kerak.

7 Nazorat usullari

7.1 Novlarni loyihaviy siqilishga bo’lgan chiquvchi mustahkamligi namunalar seriyasida ГОСТ 18105 bo‘yicha, ishchi tarkibi beton aralashmasidan tayyorlangan ГОСТ 10180 bo‘yicha o‘tkazish lozim.

7.2 Novlar betonining chiquvchi mustahkamligini buzmasdan nazorat qilish usulida ГОСТ 17624 bo‘yicha ultratovushli uskunalar ta’sirida va mexanik uskunalar ta’sirida ГОСТ 22690 va O‘z DSt ISO 1920-7 bo’yicha amalga oshiriladi.

7.3 Novlarning himoya qatlamining qalinligi va betonda armaturani joylashuv nazorati ГОСТ 22904 bo‘yicha aniqlash lozim.

Kerakli asboblar bo’lmaganda ariqcha va armatura ochilishiga keyinchalik ariqchani yopishga ruxsat beriladi. Shuning uchun beton himoya qatlamining armaturagacha bo’lgan qalinligini ГОСТ 427 bo’yicha metall lineyka bilan aniqlanadi.

STANDARTLAR INSTITUTI #QDS6TWYKTO - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

7.4 Novlarni geometrik o’lchamini nazorati, ularni og’ishi, to‘g‘ri chiziqlikda og‘ishi, yon tomon qirralari perpendikulyarlikdan og‘ishi, o‘rnatuv ilgaklarini joylashishi va beton yuzasida texnologik yoriq kengligini ochiqligini ГОСТ 26433.0 va ГОСТ 26433.1 talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

7.5 Novlar betonining sovuqbardoshliligi ГОСТ 10060 va suv o‘tkazuvchanligi ГОСТ 12730.5 bo‘yicha sinovlar aniqlanadi;

7.6 Qo‘llaniladigan po’lat armaturani sifatini nazorati ГОСТ 34028, ГОСТ 6727 va O‘z DSt 3025 bo‘yicha amalga oshiriladi.

Qo‘llaniladigan materiallarni sifatini nazorati:

sement va shlakoportlandsement ГОСТ 310.3 va ГОСТ 310.4 bo‘yicha;

qurilish ishlari uchun qum ГОСТ 8735 bo‘yicha;

qurilish ishlari uchun zich tog‘ jinsidan chaqiq tosh ГОСТ 8267 bo‘yicha yoki chaqiq tosh ishlab chiqishda tog‘ jinlaridan qum ГОСТ 31424 bo‘yicha.

beton va qorishmalar uchun suv ГОСТ 23732 bo‘yicha.

7.8 Xom ashyo materiallarni tabiiy radionuklidlarining solishtirma samarali faolligi (A_{sam}) ГОСТ 30108 bo’yicha aniqlanadi.

7.9 Novlarni tamg‘alash yozuvlarini to‘g‘riligini kuzatish barcha to‘plarni butunlay nazorat qilish usulida amalga oshiriladi.

8 Transportda tashish va saqlash

8.1 Novlarni transportda tashish va saqlash ushbu standart va ГОСТ 13015 talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

8.2 Novlarni transportda tashish harakat xavfsizligini va mahsulot butliligini ta‘minlovchi qotirmalar va tayanch jihozlari bilan jihozlangan avtotransportda amalga oshiriladi.

8.3 Novlarni transport vositasida qotirish ularning harakatlanish jarayonida ishqalanish va o‘zaro to‘qnashishni, ko‘ndalang va bo‘ylama to‘qnashishga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

8.4 Novlarni saqlash ishchi bo‘lmagan holatda amalga oshiriladi.

8.5 Novlarni saqlash ishchi holatda (tagi yuqoriga), ko‘prik plitasi – ishchi holatda (yotiq) to’rtta nuqtaga tiralgan holatda amalga oshiriladi.

8.6 Novlar 100 mm qalinlikda taxta tagliklarda, pastki qator tagliklari 30 mm qalinlikda taxlamlarda saqlanishi kerak. Taxlamni balandligi 2 m dan oshmasligi kerak

8.7 Taxlamlar orasidan o‘tishni uzunligi yo‘nalishda har ikkita yonma-yon taxlamlar orqali, ko‘ndalang yo‘nalish orqali esa kamida 25 m da joylashtirish kerak.

O‘tish yo‘li kengligi kamida 1,7 m, yonma-yon taxlamlar orasidagi tirqishlar kattaligi 0,2 m bo‘lishi kerak.

8.8 Ko‘prik plitalari va novlarni o‘rnatish va tushirish bilan bog’liq bo’lgan barcha operatsiyalar, maxsus travers yordamida amalga oshiriladi, mahsulotlarga zarar yetkazmasligini ta’minlaydigan chora-tadbirlar, shuningdek yuklarni o’rnatish va tushirish ishlarni ГОСТ 12.3.009 muvofiq xavfsizlik talablarini ta’minlash kerak.

9 Foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar

9.1 Mahsulotlarni qurilish obyektida ishchi chizmalariga va [10] talablariga muvofiq montaj qilish lozim.

9.2 Novlarni o’rnatish [11] talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

9.3 Novlar xandaqlari yon devori orasidagi masofani maksimal kengligi 30 cm, har tomonlari bo’yicha 15 cm bo’lishi kerak.

9.4 Novlarni xandaqlarda ehtiyotkorlik bilan tekislashtirilgan asosda qo’yish kerak.



10 Ishlab chiqaruvchining kafolatlari

10.1 Ishlab chiqaruvchi novlarni buyurtmachi tomonidan mazkur standartining talablariga muvofiqligini, transportda tashish va saqlash shartlariga rioya qilinganda kafolatlaydi.


10.2 Temirbeton novlarning kafolatli saqlash muddati 2 yil.

STANDARTLAR INSTITUTI #QDS6TWYKTO - 03.02.2026 "TORON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

A ilova
(normativ)

Marka	Shakli	O‘lchamlar, mm			Og‘irligi tn	Beton hajmi m^3
		Uzunligi l	Kengligi b_1/b_2 (b)	Chuqurligi balandligi h		
Novlar						
NO 60.3.5/3		6000	490/340	340	1,3	0,52
NI 60.3.6/4		6000	600/360	340	1,45	0,61
NI 50.4.4/3		5000	400/300	400	1,2	0,5
NI 40.5.6/4		4000	550/400	500	1,1	0,47
NI 30.4.5/4		3000	400/270	480	0,775	0,31
NI 30.4.6/4		3000	550/200	480	0,62	0,25
NO 50.4.4/3		4980	400/300	400	1,3	0,5
NO 10.3.2d		970	200	300	0,16	0,064
		970	200	300	0,16	0,064

STANDARTLAR INSTITUTI #QDS6TWYKTO - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

NO 10.3.2dt						
NO 10.3.2dn		970	200	300	0,16	0,064
NO 30.3.2		2970	200	300	0,5	0,2
Manzarali nov						
NOM 30.2.62 NM-3		3000	580	160	0,5	0,2
N-1A		1120	300	160	0,1	0,04
NOM 27.1.6		2700	600	160	0,45	0,18

STANDARTLAR INSTITUTI #QDS6TWYKTO - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

Bibliografiya

[1]	SanQvan 0193-06	Radiatsiya xavfsizligi normalari (rxn 2006) va radiatsiya xavfsizligini ta‘minlashning asosiy sanitar qoidalari (rxtasq 2006)
[2]	SHNQ 2.04.05-22	Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash
[3]	SanQvan 0294-11	Gigiyenik me’yorlar. Ish joylari havosidagi zararli moddalar ruxsat etilgan miqdorining gigiyena normativlari
[4]	SanQvan 0324-16	Ishlab chiqarish korxonalari binolari mikroiqlimining sanitar — gigiyenik me’yorlari
[5]	SHNQ 2.09.02-23	Korxonalarning ishlab chiqarish hamda ma’muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari
[6]	SanQvan 0325-16	Ish joylarida ruxsat etilgan shovqin darajasi bo‘yicha sanitariya normalari
[7]	SanQvan 0326-16	Ish joylaridagi umumiy va lokal tebranishlarning sanitariya normalari
[8]	SanQvan 0293-11	Gigiyenik me‘yorlar. O‘zbekiston Respublikasi hududidagi aholi punktlarining atmosfera havosidagi ifloslantiruvchi moddalarning zararli moddalar ruxsat etilgan miqdorining ro‘yxati
[9]	SanQvan 0300-11	O‘zbekiston sharoitida ishlab chiqarish chiqindilarini yig‘ish, inventarizatsiya qilish, tasniflash, zararsizlantirish, saqlash, va utilizatsiya qilishni tashkil etishning sanitariya qoidalari va normalari
[10]	SHNQ 3.01.02-2023	Qurilishda xavfsizlik texnikasi
[11]	QR 01.01-23	Hududlarni obodonlashtirish ishlari

STANDARTLAR INSTITUTI #QDS6TWYKTO - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

Bibliografik ma’lumotlar

SMT 91.080.40

Muhim so’zlar: temir-beton irrigatsiya novlari, texnik talablar, tamg’alash, Xavfsizlik va atrof – muhitni muxofaza qilish talablari, qabul qilish qoidalari, nazorat qilish usullari, transportda tashish va saqlash.

STANDARTLAR INSTITUTI #QDS6TWYKTO - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ